

**Raya YERNAZAROVA,**  
*O'zbekstan davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti*  
*Nukus filiali assistenti*  
*Raya28081981@gmail.com*  
*Tel: +99 899 456 5599*

*Qorakalpok davlat universiteti b. f. n. dotsent Maturazova Elmira Matiyazovna taqrizi*

## PREPARING TEACHERS FOR THE PROFESSION TODAY MODERN MECHANISM

Annotation

In this article we will talk about the training of educators in the profession today the definition of the content and levels of the takkomilization of the modern mechanism and functional model provides pedagogical opportunities for their preparation for professional-pedagogical activity. Speaking about the issues of training future educators in the modern way, the training of specialists with deep knowledge of creative thinking, capable of solving complex social and production problems, the problems and solutions of today are scientifically outlined.

**Key words:** Modern pedagogue, modern method, pedagogical training, creative thought, educational concept, integrative knowledge, teaching technologies and design, innovative methods, professional speech-professional communication, oral and written speech..

## ПОДГОТОВКА ПЕДАГОГОВ К ПРОФЕССИИ СЕГОДНЯ СОВРЕМЕННЫЙ МЕХАНИЗМ

Аннотация

В этой статье мы поговорим о подготовке педагогов к профессии сегодня определение содержания и уровней таккомилзации современного механизма и функциональной модели предоставляет педагогические возможности для их подготовки к профессионально-педагогической деятельности. Говоря о вопросах подготовки будущих педагогов по современному, подготовки специалистов с глубокими знаниями, творческим мышлением, способных решать сложные социальные и производственные задачи, научно излагаются проблемы и пути их решения на сегодняшний день.

**Ключевые слова:** Современный педагог, современный метод, педагогическая подготовка, творческое мышление, образовательная концепция, интегративные знания, технологии и дизайн обучения, инновационные методы, профессиональная речь, профессиональное общение, устная и письменная речь.

## BUGUNGI KUNDA PEDAGOGLARINI KASBGA TAYYORLASHNING ZAMONAVIY MEXANIZMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda pedagoglarini kasbga tayyorlashning zamonaviy mexanizmiva funksional modelini takkomillashtirishning mazmuni va darajalarini aniqlash ularni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlarini beradi. Bo'lajak pedagoglarini zamonaviy usulda tayyorlash masalalari, kreativ fikrlaydigan chuqur bilimga ega, murakkab ijtimoiy va ishlab chiqarish muammolarini hal etishga qodir mutaxassislarni tayyorlash haqida to'xtalib, bugungi kundagi muammo va yechimlar ilmiy jihatdan ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Zamonaviy pedagog, zamonaviy usul, pedagog tayyorlash, ijodiy fikr, ta'lim konsepsiyasi, integrativ bilimlar, o'qitish texnologiyalari va loyihalash, innovatsion metodlar, professional nutqprofessional muloqot, og'zaki va yozma nutq.

**Kirish.** Mamlakatimizda keying yillarda ijtimoiy sohaga aloxida e'tibor qaratilmoqda, xususan ta'lim sohasiga olib borilayotgan islohlr buning isbotidir. Buning asosi sifatida "Ta'lim to'g'risida"gi qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida fanlarni o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi. Zamonaviy mutaxassis kasbiy faoliyati sohasidagi yangiliklarni egallab borishi, istiqboldagi taraqqiyot yo'nalishlari hamda yuzaga keluvchi muammolarni yechish yo'llarini ko'ra bilishi lozim. Bunday talablar darajasidagi mutaxassisni tarbiyalash uchun o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va boshqarish, kasb-hunar kollejarida ishlab chiqarish ta'limini amalga oshirishning samarali shakllari, faol usullari hamda zamonaviy vositalari majmuasini ishlab chiqish hamda ilmiy-usullik jihatdan asoslash lozim bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash, sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, pedagogik va texnik bilimlarni mustahkam integratsiyasini ta'minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish asosiy maqsadlardan etib belgilangan. Jamiyatimizda ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar zamirida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, rivojlangan davlatlar darajasidagi talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tiborda. Dunyoda ta'lim tizimini zamonaviy texnologiyalashtirish nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning metodik ta'minotini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqot ishlari mazmunida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy – pedagogik va ijtimoiy faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etish maqsadida o'z huquq va majburiyatlarini chuqur anglagan holda mamlakat kelajagi yo'lidagi mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi layoqatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limni yo'lga qo'yish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatini rivojlantirish bugungi kunda pedagoglar oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib, mazkur jarayon kompetensiyaviy yondashuvlarni ochib berishdan iboratdir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Mamlakatimiz prezidenti SH.M. Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati bilan birgalikda va jam o'at tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar ishtirokida 2022-2026 -yillarda O'zbekistonni Taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqildi. Ushbu strategiyada davlat qurilishi, sud-huquq tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va ijtimoiy sohani rivojlantirish, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash bo'yicha eng dolzarb vazifalar aniq belgilab berildi. Bo'lajak pedagogni kasbiy faoliyatga tayyorlashning muammoli modulli va maqsadli yondashuvlar integratsiyalashgan texnologiyasini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish, pedagogik-psixologik shart-sharoitlari va tamoyillarini SH.S.Sharipov tomonidan tavsiflab o'tilgan, N.A.Muslimovlarning ilmiy ishlarida o'quv jarayoni va

bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish muammolari, SH.S.Sharipov, E.R.Yuzlikayeva tadqiqotlarida respublikamizda ta'lim muassasalarini bosharish modellarini yaratish va joriy qilish masalalari o'rganilgan. Bo'lajak kasbiy ta'lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish pedagogning kasbiy kompetentligi tuzilmasida loyihalashtirish faoliyatining yangi bilimni loyiha ko'rinishida individual ma'sullashga yo'naltiradigan original fikrlash salohiyati rivojlanganligini ochib beradigan refleksiya va pedagogning mustaqilligini tavsiflovchi ijodiy darajalari aniqlandi. Bo'lajak pedagogni kasbiy tayyorgarlik esa – bo'lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligini belgilaydi.

XXI asrda zamonaviy pedagog uchun ta'lim jarayoni o'quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog'langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o'zgartirishlar kiritiladigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarini real hayotiy va kasbiy vaziyatlarda muloqot ko'nikmalari va qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish, ularda jamiyatimizning ijtimoiy-kommunikativ sohasi uchun shaxsiy va ijtimoiy mas'ullik hissida tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari aniqlangan. Mazkur imkoniyatlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga kirisha olishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanadiki, kommunikativ kompetentlik asosiy kompetensiyalar guruhiga kirib, kasbiy, ijtimoiy, ijtimoiy va shaxslararo faoliyatning muhim va ajralmas omili sifatida namoyon bo'ladi va shaxsning muvaffaqiyati hamda raqobatbardoshligini ko'p jihatdan belgilaydi. O'qituvchining kasbiy faoliyati muloqot madaniyatini rivojlanganligida aks etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi davrda talabalarining kasbiy – pedagogik faoliyatga tayyorlash muammosi keng o'rganilgan bo'lib, ular turlicha kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid nazariyalar, konseptsiyalar, innovatsion yondashuvlar, faoliyat mexanizmlarga asoslangan holda tadqiq qilingan. Pedagogik ta'lim nazariyasida "faoliyat" tushunchasi bilan uzviy bog'langan va faoliyatning taxminiy variantlarini yaratish hamda uning natijalarini tashxislashdan iborat. Faoliyat shaxs tomonidan kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi sanalib, insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi. Talabalarining kasbiy pedagogik faoliyati – shaxs faoliyatida doimiy davom etuvchi serqirralikni o'zida namoyon etuvchi, pedagogik uddaburonligi, o'quvchilar ongining taraqqiy etib borishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi, o'quv maqsadlarini to'laqonli yoritish olish metodikasini bilishi va ta'lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishga bo'lgan layoqatiga aytiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda "fani o'qitish metodikasi", "fani o'qitish texnologiyalari va loyiha", "Pedagogik nazariyasi" "Pedagogik mahorat" fanlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur fanlarni o'qitishda talabalarida kasbiy o'quv bilish faoliyatni rivojlantirish, biologik ta'lim mazmuni va tuzilmasi, zamonaviy yondashuvlar asosida biologik ta'lim mazmunini yangilash imkoniyatlari bilan tanishtiradi. Ushbu fan asoslari bilan bog'liq bo'lgan o'quv, jarayonlar, prinsiplar va qonuniyatlarni bilish o'qituvchiga maktab kursi bilan bog'liq o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish imkonini beradi. Bu esa o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etishning maqsad qilib, biologik o'quv fanlar bo'yicha chuqur atroflicha bilim berish, ularning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishiga ko'mak beruvchi innovatsion ta'lim texnologiyasidan unumli foydalanishni talab etadi. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatini beruvchi quyidagi vazifalarni belgilab olish maqsadga muvofiqdir: o'quvchilarning o'qitish va tarbiyalash, kamolga yetkazishda o'quv fanining o'rnini aniqlash; o'quvchilarning yoshiga mos ravishda o'quv fanlarining mazmuni, undagi mavzularning o'rganish izchilligini belgilash; biologik o'quv fanlarining o'ziga xos tomonlarini e'tiborga olgan holda, o'qitishning kollektiv ta'lim texnologiyalari asosida tashkillash yo'llarini aniqlash va o'qitishning loyiha shakllarini ishlab chiqish; biologik bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishda qo'llash uchun zarur bo'lgan fan mazmuniga oid jihozlarni aniqlash; fan xonasini tirik burchak, tajriba yeri maydonini tashkil etish, tabiiy, tasviriy, dinamik, audio, video vositalarni belgilash; o'quv fani bilan aloqador bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy jarayonda o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirish texnologiyalaridan (vitagen, salomatlikni saqlash ta'limi, salomatlik madaniyatini rivojlantirish va refleksiv ta'lim texnologiyalaridan) unumli foydalanishdan iboratdir.

Pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonida avval ma'lum bo'lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni ekanligi ta'kidlanadi. N.A.Moreva, V.A.Slastenin innovatsiyani yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanishga qaratilgan maqsadga muvofiq, yo'naltirilgan jarayoni majmui deb biladi. Muallifning fikriga ko'ra har qanday innovatsiya yangi vositalar yordamida ijtimoiy subyektlarning ehtiyojini qondirish va intilishlarini rag'batlantirish maqsadini ko'zlaydi. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o'ziga xos yondashuvlar kuzatiladi.

**Tahlil va natijalar.** Tahlil natijalariga tayanib, o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda, quyidagi ketma-ketlikka e'tibor qaratish zarur degan xulosaga keldik: 1.Mashg'ulotning chaqiriq bosqichi. Bu bosqichda o'quvchilarni faollashtirish, mavzuning mazmun-mohiyatiga o'quvchilarning chuqur kirib borishlari, uni to'liq anglab yetishlari jarayoniga tayyorlashni amalga oshirish zaruriyati; 2.Mashg'ulot jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish metodlarini qo'llash bosqichi. Bu usullar o'quv mashg'ulotining boshlanishida yoki istalgan qismida qo'llanilishi mumkin. Bu bosqichda muammo o'quvchilarga istalgan usulda beriladi va ularning fikrlari orqali natija umumlashtirilib olinadi; 3.Mavzu mazmuni-mohiyatini anglash bosqichi. Mavzuga oid xulosaviy fikrlar jamlanadi va o'qituvchi tomonidan yangi fikrlar bilan to'ldirib boriladi; 4.Fikrlash bosqichi. Muhokama qilingan mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim va tushunchalarni qisqacha yozma bayon qilish tapshiriladi. Bu topshiriqlarni bajarish uchun sinf guruhlariga ajratiladi. Har bir gurux topshiriq bo'yicha o'z fikrlarini yozadi va har bir gurux vakili bajarilgan topshiriqni boshqalarga tushuntirib beradi. Bulardan tashqari guruhlariga topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratish, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish, kuchli guruxlarni rag'batlantirib borish, natijalarni baholashga ham ahamiyat qaratadi. Mashg'ulot jarayonida kuchli gurux a'zolarini kuchsiz gurux a'zolariga almashtirish ham mumkin. O'quv mashg'ulotlarini ushbu ketma-ketlikda tashkil etilganida, o'quvchilarning kreativ qobiliyati rivojlanib boradi, mustaqil fikrlash ko'nikmasi hosil bo'lib, ijodiy tafakkurining rivojlanishiga zamin yaratadi. Innovatsion pedagogik yondashuv – mazkur jarayonda pedagoglar pedagogik innovatsiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, zamonaviy yondashuvlarga asoslangan pedagogik innovatsiyalar va ularni o'rganish, mahalliy shartsharoitlarni inobatga olgan holda amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko'nikma, malakalarni izchil o'zlashtiradilar, o'z faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni faol qo'llash borasidagi tajribalarni o'zlashtiradilar.

Yakka tartibda ishlashga oid yondashuv -pedagoglar o'zlarining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, tajribalariga tayangan holda pedagogik innovatsiyalarni qo'llashda muayyan izchillikka erishadilar. Mazkur vaziyatda o'quvchilar bilan ishlashda psixologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni ichki kechinmalarini his etish, mavjud muammolarni

o'rganish va bartaraf etishga hamda o'quvchining bilish faoliyatini shakllantirishning pedagogik shart sharoitlarini yaratishning metodik imkoniyatini beradi. Ijodiy yondashuv - unga ko'ra har bir pedagog faoliyatini o'rganilayotgan mavzu, o'quv materialining mohiyati, shuningdek, o'z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati, ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida intellektual his etishga asos bo'ladi.

Bugungi kundat ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirish zamonaviy ta'lim paradigmalarining o'zgarishini ham talab etadi. Bu paradigmalar o'quvchilarga tayyor mavjud bilimlarni o'zlashtirishni emas, balki eng asosiy, zarur bilimga qayeday qilib ega bo'lish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. O'quv faoliyatini samarali tashkil qilish, dars jarayonida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardan to'g'ri foydalanish orqali amalga oshiriladi. mashg'ulotlar jarayonida ulardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish va o'zaro uzviy bog'liq holda qo'llay olish ta'lim va tajriba samaradorligining muhim omillaridan biridir o'qituvchini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning samarali metodlarini tanlash va amaliyotga tadbiiq etish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik faoliyatini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuv asosida biologik ta'lim mazmuni va strukturasi, zamonaviy muammolar, yondoshuvlar asosida biologik ta'lim mazmunini yangilash imkoniyatlari bilan tanishtiriladi. Pedagog innovatsion faoliyatini o'ziga xos xususiyatlari, darajalari, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo'llari, o'quvchilarga tavofutlab individual yondashish kabi masalalari muhim ahamiyatga egadir. Innovatsion muhit sharoitida darslari, laboratoriya va amaliy mashg'ulot, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o'quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil yetish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi, mustaqil va ijodiy, tanqidiy-tahliliy fikr yuritish, turli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va ulardan chiqishning muqobil variantini tanlash, ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va amaliyotga qo'llash, innovatsion faoliyatni amalga oshirish jarayonlarini loyihalashtirish uchun zarur bo'lgan malakalariga ega bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** Hozirgi davrda pedagogni har tomonla kasbiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirish muammosi xorijiy hamda respublika pedagogikasida keng o'rganilgan tadqiq qilingan bo'lib, ular turlicha nazariyalar, konsepsiyalar, yondashishlar, pozitsiyalar, yo'nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan. Shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetentligi innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, ularda pedagogik salohiyatini oshirishga zamin yaratadi. Darsda mashg'ulotlarda turli pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda, ingliz tilini o'qitish jarayoni butunlay yangi nuqtai nazardan qaralishi va shaxsni shakllantirishning yangi mexanizmlarini o'zlashtirish, qulay sharoitda sifatlilik natijalarga erishish mumkin. O'qituvchi ingliz tilini o'qitish uchun qaysi metodni tanlamasin, uning asosida talabaga ko'proq bilim berish va yoshlar tomonidan ingliz tilini yaxshi o'zlashtirilishiga yordam ko'rsatishga intilish yotishi lozim. Shundagina har qanday metod o'z samarasini.

#### ADABIYOTLAR

1. Yuzlikayeva E.R. Teoriya i praktika podgotovki uchitelya k diagnosticheskoy deyatelnosti: Avtoref. dis... doktora ped. nauk. – Tashkent: TGPU, 2012. – 42 s.
2. Heath SH.B. Bilingual Education and a National Language Policy // Perspectives on Bilingualism and Bilingual Education. –Washington, 2008.
3. Lado R. Language Teaching. –New York, San Francisco, Toronto, London, 2010
4. Mamatqosimova V. 20-30 - yillar o'zbek marifatparlik adabiyotida badiiy tarjimaning o'rni (frantsuz adabiyotidan qilingan tarjimalar misolida). fil.fan.nom. disseratsiyasi. –T:2010. –145 b.
5. Sidiqov Q. "Qutadg'u bilik" to'rtliklarining inglizcha badiiy tarjima xususiyatlari. – fil.fan.nom. disseratsiyasi. –T:2010. – 151 b